D.H. LAWRENCENING “WOMEN IN LOVE” ROMANIDA PORTRET TAVSIFLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (V. WOOLFNING “MRS. DALLOWAY” ROMANI BILAN QIYOSDA)

Andaqulova Nilufar Botirjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, 3-bosqich tayanch doktorant
nilufarandakulova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada D.H. Lawrencening “Women in Love” romanidagi portret tavsiflarining lingvopoetik xususiyatlari hamda ularning V. Woolfning “Mrs. Dalloway” romanidagi portretlar bilan qiyosiy-intertekstual munosabati tahlil qilinadi. Birkin, Gerald va Gudrun portretlaridagi somatik leksika, rang-harorat semantikasi, baholovchi sifatlar, harakat fe’llari hamda “but”, “yet”, “almost” kabi sintaktik-modal birliklarning talqin chegarasini belgilovchi vazifasi ochib beriladi. Fokalizatsiya kategoriyasi asosida personaj idroki bilan muallif bahosi farqlanadi. Lawrence romanida dinamik-relatsion, Woolf romanida esa psixologik-impressionistik portret modeli ustuvorligi asoslanadi; ikki model o‘rtasidagi farq mutlaq “ong-tana” qarama-qarshilikda emas, poetik komponentlarning ustuvorlik darajasida ekanligi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy portret, modernizm, D.H. Lawrence, “Women in Love”, lingvopoetika, fokalizatsiya, intertekstuallik, dinamik-relatsion model.*

Аннотация. *В статье анализируются лингвопоэтические особенности портретных описаний в романе Д.Г. Лоуренса «Влюблённые женщины» и их сравнительно-интертекстуальное соотношение с портретами в романе В. Вулф «Миссис Дэллоуэй». Раскрывается функция соматической лексики, цветотемпературной семантики, оценочных прилагательных, глаголов движения, а также синтаксико-модальных единиц “but”, “yet”, “almost”, определяющих границы интерпретации портретов Биркина, Джеральда и Гудрун. На основе категории фокализации разграничиваются восприятие персонажа и авторская оценка. Обосновывается преобладание динамико-реляционной модели портрета у Лоуренса и психолого-импрессионистической у Вулф; показано, что различие между ними заключается не в абсолютной оппозиции «сознание - тело», а в степени доминирования поэтических компонентов.*

Ключевые слова: *художественный портрет, модернизм, Д.Г. Лоуренс, «Влюблённые женщины», лингвопоэтика, фокализация, интертекстуальность, динамико-реляционная модель.*

Abstract. *The article analyses the linguopoetic features of portrait descriptions in D.H. Lawrence’s Women in Love and their comparative-intertextual relation to portraits in V. Woolf’s Mrs Dalloway. It examines the role of somatic vocabulary, colour-temperature semantics, evaluative adjectives, verbs of motion and such syntactic-modal units as “but”, “yet” and “almost”, which set the limits of interpretation in the portraits of Birkin, Gerald and Gudrun. Drawing on the category of focalization, the study distinguishes character perception from authorial evaluation. It argues that a dynamic-relational portrait model predominates in Lawrence and a psychological-impressionistic model in Woolf, and that the difference lies not in an absolute “mind-body” opposition but in the relative dominance of poetic components.*

Keywords: *literary portrait, modernism, D.H. Lawrence, Women in Love, linguopoetics, focalization, intertextuality, dynamic-relational model.*

Kirish. XX asr boshidagi ingliz modernistik nasrida badiiy portret an’anaviy realistik romandagi vazifasini, personajni ijtimoiy jihatdan tanishtirish va tashqi qiyofasini to‘liq chizib berishni, qayta ko‘rib chiqdi. Portret endi tashqi belgilar ro‘yxati emas, personajning idroki, ruhiy holati va boshqalar bilan munosabatini birlashtiruvchi dinamik tuzilmaga aylandi. Adabiyotshunoslikda portret personajning yuzi, qomati, kiyimi, mimikasi, imo-ishorasi va xatti-harakatini qamrab oluvchi tashqi qiyofasining badiiy tasviri sifatida ta’riflanadi; o‘zbek adabiyotshunosligida ham u obraz yaratishning muhim vositasi sifatida qaraladi[44].

David Herbert Lawrencening “Women in Love” (1920) romani bu jarayonning o‘ziga xos namunasidir. Agar Virgina Woolfning “Mrs. Dalloway” (1925) romanida portret ko‘proq ong oqimi, xotira va lahzaviy taassurot orqali yuzaga chiqsa, Lawrenceda qiyofa tana, harakat, nigoh, rang va personajlararo ziddiyat bilan bog‘liq holda shakllanadi. Shu bois ikki romandagi portret tavsiflarini yagona mezonlar asosida qiyoslash modernistik portret poetikasining umumiy va individual jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi “Women in Love” romanidagi portret tavsiflarining lingvopoetik va ekspressiv-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni “Mrs. Dalloway” romanidagi portretlar bilan qiyosiy-intertekstual jihatdan tahlil qilishdan

[44]Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 226–227.

iborat. Material sifatida Rupert Birkin, Gerald Crich, Gudrun va Ursula Brangwen hamda Hermione Roddice portretlari, qiyos uchun esa Clarissa Dalloway va Septimus Warren Smith tavsiflari olindi. Portret fragmenti sifatida kamida bitta qiyofaviy yoki psixofizik belgi va kamida bitta badiiy funksiyaga ega matn bo‘lagi qabul qilindi. Tahlilda lingvopoetik, narrativ, qiyosiy va intertekstual usullar qo‘llandi. Fokalizatsiya G. Genette talqinida[45] qiyofa kimning nigohi va bahosi orqali berilayotganini aniqlovchi narrativ kategoriya sifatida olindi.

Asosiy qism. Lawrence portretida tashqi belgi xarakter haqida yakunlangan hukm bermaydi; u sintaktik tuzilishning o‘zidayoq ziddiyatli baho sifatida namoyon bo‘ladi. Romanning “Sisters” bobida Birkin quyidagicha tasvirlanadi: “Birkin was as thin as Mr Crich, pale and ill-looking. His figure was narrow but nicely made”[46]. “Thin”, “pale” va “ill-looking” sifatlari qahramonning nozik va xastahol ko‘rinishini bildiradi, “but nicely made” esa bu bahoni qarama-qarshi belgi bilan chegaralaydi. “But” bog‘lovchisi qiyofani biryoqlama zaiflikka qisqartirishga yo‘l qo‘ymaydi: ikkinchi gap avvalgi taassurotni tuzatadi. Demak, Lawrence portretidagi ziddiyat falsafiy g‘oya sifatida tashqaridan yuklanmaydi, balki avvalo sintaksisda ko‘rinadi.

Birkin romanda ko‘pincha boshqa qahramonlar nigohi orqali ko‘rsatiladi va har safar turlicha qabul qilinadi: kimdir uni g‘alati va tushunarsiz deb biladi, kimdir uning so‘zlarida xavfli haqiqatni sezadi. Bu ko‘p nuqtayi nazarlilik Lawrence portret poetikasining asosiy belgilaridan biridir. Birkin portretida tashqi ko‘rinishdan ko‘ra ichki bezovtalik, fikriy keskinlik va ruhiy izlanish ustun turadi; uning yuz ifodasi, ovoz ohangi va keskin mulohazalari mavjud hayot shakllaridan noroziligini sezdiradi.

Gerald Crich portreti ikki qatlamli: birinchi qatlamda jismoniy qudrat, tartib va iroda, ikkinchisida ruhiy bo‘shliq va beqarorlik turadi. Uning qiyofasi kon, mexanizm va ishlab chiqarish tartibi bilan bog‘langan muhitda shakllanib, sanoat sivilizatsiyasining mexanik ruhini eslatadi. Gudrun Brangwen portretida estetik joziba bilan psixologik tahdid, hayrat bilan xavotir birlashadi; Ursula portretida ichki mustaqillik, sezgirlik va sukutli qarshilik, Hermione Roddice portretida esa intellektual ustunlikka intilish ortidagi zo‘riqish va ruhiy sun’iylik ta’kidlanadi. Shu tariqa har bir obraz atrofida o‘ziga xos semantik maydon shakllanadi, qahramonlar esa o‘zaro kontrast asosida ochiladi: Birkin va Gerald, Ursula va Gudrun, Ursula va Hermione.

[45]Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method / transl. by J.E. Lewin. – Ithaca: Cornell University Press, 1980. – P. 189–194.
[46]Lawrence D.H. Women in Love. – London: Martin Secker, 1921. – Ch. I «Sisters». – P. 20.

Lawrence portretining eng muhim xususiyati uning bog’liqlik tabiatidir. Qahramon qiyofasi ko‘pincha tinch holatda emas, balki munosabat va konflikt jarayonida ochiladi. Gerald va Gudrun bir-birini kuzatar ekan, har bir nigoh baholash, ichki kuchni sinash va psixologik kurash vositasiga aylanadi. Ursula va Birkin chizig‘ida esa portretlar ziddiyat orqali anglashga, nisbiy uyg‘unlikka tomon harakat qiladi. Shu ma’noda Lawrence romanida jismoniy masofa psixologik masofaga aylanadi, portret esa munosabatlar rivojining badiiy ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi.

Portretning ekspressivligi tasvirlanayotgan belgining o‘zi bilangina emas, uni ifodalovchi so‘z, bog‘lovchi va sintaktik tartib bilan ham belgilanadi. Lawrence portretida somatik leksika (ko‘z, yuz, qo‘l, gavda, yurish, ovoz), rang-harorat semantikasi, baholovchi sifatlar, harakat fe’llari, metafora, o‘xshatish, takror va antiteza yagona lingvopoetik tizimni tashkil etadi. I.R. Galperin ta’kidlaganidek, epitet predmet belgisini nomlash bilan birga, unga nisbatan subyektiv-emotsional munosabatni ham ifodalaydi[47]. Lawrence sifatlovchilari aynan shu vazifani bajaradi.

Geraldga nisbatan qo‘llangan *“his blue eyes burned with a keen, yet cold light”*[48] ifodasida ko‘zlar “burned” fe’li bilan berilib, “keen” va “cold” sifatlari bilan aniqlanadi. “Yet” bog‘lovchisi faollik va sovuqlikning bir vaqtda mavjudligini urg‘ulaydi. Ko‘z rangining o‘zi hissiy sovuqlikni bildirmaydi; bu ma’no “light” otiga birikkan sifat va yonidagi fe’l orqali yuzaga keladi. Shu bilan birga, “cold” belgisini yolg‘iz olib, Geraldni mutlaq hissiz mexanizmga aylantirish kontekstni toraytiradi: “In the Train” epizodida Birkinning kuzatuvi qahramonning jismoniy go‘zalligiga bo‘lgan taassurot bilan ham bog‘langan. Demak, portret kuch va masofadan tashqari kuzatuvchining qiziqishini ham bildiradi.

Gudrun tasviridagi “her eyes black as night in her pallid face, she looked almost unearthly”[49] birikmasida “black as night” o‘xshatishi va “pallid face” ko‘z-yuz kontrastini kuchaytiradi, “almost” esa “unearthly” bahosini mutlaq hukm emas, taassurot sifatida belgilaydi. “Rabbit” bobidagi ushbu epizod quyon bilan kurash va uning chinqirig‘idan keyin keladi, kuzatuvchi esa Geralddir. Shuning uchun bu qiyofani Gudrunning o‘zgarmas “g‘ayritabiiy mohiyati” deb emas, vaziyat ta’sirida paydo bo‘lgan psixofizik taassurot sifatida o‘qish aniqroq. “Almost”ni tushirib qoldirish talqinning ehtiyotkorlik darajasini tubdan o‘zgartiradi.

Ushbu uch misol hajman kichik birliklarning talqin chegarasini belgilashini ko‘rsatadi: Birkinning “but”i dastlabki bahoni tuzatadi, Geraldning “yet”i ikki belgi

[47]Galperin I.R. Stylistics. – 2nd ed. – Moscow: Higher School, 1977. – P. 157.
[48]Lawrence D.H. Women in Love. – Ch. V «In the Train». – P. 61.
[49]Lawrence D.H. Women in Love. – Ch. XVIII «Rabbit». – P. 252.

orasidagi taranglikni saqlaydi, Gudrunning “almost”i taassurotni qat’iy hukmdan ajratadi. Qolaversa, bu tavsiflar ko‘pincha boshqa personajning idroki orqali beriladi. G. Lich va M. Short personaj idrokini aks ettiruvchi til tanlovi matnda o‘ziga xos “mind style” hosil qilishini ko‘rsatgan[50]. Shu sababli portretdagi baho muallifning bevosita hukmi bilan emas, fokalizator ongi bilan bog‘lab o‘qilishi lozim.

Rang semantikasi portretning psixologik qatlamini boyitadi. Sovuq ranglar va oqishlik ko‘pincha begonalashuv, hissiy muzlash va ruhiy masofani, issiq ranglar esa ichki energiya, ehtiros yoki xavfli tortilishni bildiradi. Gerald portretida sovuqlik, metallik va oqishlik semantikasi uning sanoat dunyosi bilan bog‘liqligini kuchaytirsa, Birkin va Ursula bilan bog‘liq sahnalarda yorug‘lik, havo, suv va o‘simlik obrazlari ichki erkinlikka intilishni ifodalaydi. Gudrun portretida esa vizual yorqinlik ruhiy sovuqlik bilan birga keladi.

Harakat fe’llari portretni jarayon sifatida quradi. Lawrence qahramonni bir holatda “muzlatib” qo‘ymaydi: u qaraydi, qotib qoladi, burilib ketadi, sukut saqlaydi yoki keskin javob beradi. Bunday fe’llar ruhiy holatni izohlamaydi, balki o‘quvchiga uni sezdiradi. Dialog sahnalarida ham nutq usuli, pauza va yuz ifodasidagi o‘zgarish portretning bir qismiga aylanadi: Birkin nutqi falsafiy va paradoksal, Hermione nutqi bosimli, Gudrun javoblari esa qisqa va sovuq. Sintaksis darajasida uzun konstruksiyalar murakkab ichki holatni, qisqa va keskin gaplar esa ziddiyat va ruhiy zarbani ifodalaydi.

Ikki romanni qiyoslashda har bir materialga bir xil savollar qo‘yildi: tashqi belgi kimning idrokida berilgan, qanday til vositasi bilan baholangan va qaysi aloqa orqali keng ma’no olgan? Woolf romanida Clarissa Scrope Purvis nigohida *“a touch of the bird about her, of the jay, blue-green, light, vivacious”*[51] tarzida tasvirlanadi. Bu qatorda belgilar bir-birini kuchaytiradi, Lawrencening Gerald haqidagi gapida esa ular o‘rtasidagi ichki mos kelmaslik ko‘rsatiladi. Septimus Warren Smith tasviridagi “pale-faced, beak-nosed” birliklari va ko‘zdagi xavotir semantikasi[52] ruhiy iztirobning badiiy idrokini shakllantiradi; urush travmasi haqidagi keyingi ma’lumotlar bu belgilarni chuqurlashtiradi, biroq portret tibbiy tashxis o‘rnini bosmaydi.

Intertekstual talqinda dalil darajasini farqlash muhim. Y. Kristeva har qanday matn iqtiboslar mozaikasi sifatida quriladi, deb hisoblaydi[53], ammo madaniy

[50]Leech G., Short M. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. – 2nd ed. – Harlow: Pearson Longman, 2007. – P. 150–151.
[51]Woolf V. Mrs. Dalloway. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1925. – P. 4.
[52]Woolf V. Mrs. Dalloway. – P. 20.
[53]Kristeva J. Word, Dialogue and Novel // Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980. – P. 66.

o‘xshashlikni muallifning ongli alluziyasiga avtomatik tenglashtirib bo‘lmaydi. Shu sababli tadqiqotda manbasi aniqlanadigan ishora, ehtimoliy matnlararo aloqa va kontekstga tayanuvchi ramziy talqin ajratildi. “Mrs. Dalloway”da Shakespearening “Cymbeline” asaridan olingan *“Fear no more the heat o’ the sun”*[54] satri aniq ishora bo‘lib, uning takrori o‘lim, chidam va hayotning o‘tkinchiligi haqidagi madaniy xotirani faollashtiradi. “Women in Love”ning “Shortlands” bobida esa Birkinning Gerald haqidagi mulohazalarida Cain nomi va *“Am I my brother’s keeper?”* savoliga ishora paydo bo‘ladi[55]; bu Injildagi Qobil hikoyasiga borib taqaladi. Biroq ayni kontekstdagi *“Not that he was Cain, either”* cheklovi qiyosni tayyor hukmga aylantirishga yo‘l qo‘ymaydi. Dalil turi jihatidan ikkala ishora qiyoslanadi, vazifasi esa farqli: birinchisi o‘lim haqidagi adabiy xotirani, ikkinchisi Birkinning Geraldni baholashidagi ehtiyotkor va ziddiyatli tafakkurni ochadi.

Nigoh motivi ham ikki romanda turlicha ishlaydi. Woolfda nigoh ko‘pincha ichki sezgirlik va xotiraga olib kiradi: Clarissa Peter Walsh nigohida, Peter esa Clarissa xotirasida qayta yaratiladi. Lawrenceda nigoh keskinroq, tanaviy va energetik kuchga ega bo‘lib, Gerald va Gudrun o‘rtasida kuch, istak va qarshilik maydoniga aylanadi. Makon ham portretni turlicha chuqurlashtiradi: Woolfda London ko‘chalari va Big Ben ovozi ong oqimiga qo‘shiladi, Lawrenceda sanoat muhiti, tabiat va Alp tog‘larining sovuq fazosi dramatik ziddiyatni kuchaytiradi. Kuzatishlar 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Ikki romandagi portret modellarining qiyosiy tavsifi

Mezon	“Mrs. Dalloway”	“Women in Love”
Portret tipi	Psixologik-impressionistik model ustuvor	Dinamik-relatsion, tanaviy-ekspressiv model ustuvor
Asosiy ifoda vositasi	Ong, xotira, sezgi, vaqt; tana detallari ham faol	Tana, harakat, rang, nigoh, konflikt; ong va xotira ham mavjud
Nigoh vazifasi	Xotira va o‘z-o‘zini anglashga olib kiradi	Kuch munosabatlari va ziddiyatni ochadi
Makon roli	London shahar ritmi, ijtimoiy marosim	Sanoat muhiti, tabiat, sovuq fazo
Intertekstual qatlam	Shakespeareda aniq ishora; urush va Londonda tarixiy-madaniy kontekst	San’at va industriallik bu kontekstual talqin

[54]Shakespeare W. Cymbeline. – Act IV, sc. 2 // Shakespeare W. The Complete Works / ed. by S. Wells, G. Taylor. – 2nd ed. – Oxford: Clarendon Press, 2005; Woolf V. Mrs. Dalloway. – P. 13, 44.
[55]Lawrence D.H. Women in Love. – Ch. II «Shortlands». – P. 27.

Jadvaldan ko‘rinadiki, farq poetik komponentlarning mavjudligi yoki yo‘qligida emas, ularning ustuvorlik darajasidadir. Har ikki yozuvchida tana, ong va boshqa personaj nigohi qiyofaning ma’no hosil qilishida ishtirok etadi. Shu ma’noda Woolf portretini “ichkaridan yoritilgan”, Lawrence portretini esa “to‘qnashuvda ochilgan” portret sifatida tavsiflash mumkin.

Xulosa. Tahlil quyidagi xulosalarga olib keldi. Birinchidan, “Women in Love” romanida portret personajning tana holati, nigohi, yuz ifodasi, harakati va fazoviy masofasini munosabatlar dinamikasi bilan birlashtiruvchi poetik tuzilma bo‘lib, unda dinamik-relatsion model ustuvordir. Ikkinchidan, somatik leksika, rang-harorat semantikasi, baholovchi sifatlar, harakat fe’llari, metafora, kontrast va sintaktik ritm o‘zaro bog‘langan lingvopoetik tizim hosil qiladi; “but”, “yet”, “almost” kabi kichik birliklar talqin chegarasini belgilaydi. Uchinchidan, portretdagi baholar ko‘pincha personaj idroki orqali berilgani uchun ularni muallifning bevosita hukmiga tenglashtirib bo‘lmaydi. To‘rtinchidan, Woolf va Lawrence portret modellarini mutlaq “ong-tana” qarama-qarshiligi bilan izohlash yetarli emas: ikkala modelning umumiy asosi personajni ichki holat va munosabatlar birligida qurish tamoyili, farqi esa poetik komponentlarning ustuvorlik darajasi va tashkil topish usulidir. Tadqiqot natijalaridan ingliz modernistik adabiyoti, lingvopoetika va badiiy matn tahlili bo‘yicha mashg‘ulotlarda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M.** Adabiyotshunoslik lug‘ati. — Toshkent: Akademnashr, 2010. — 400 b.
2. **Galperin I. R.** Stylistics. — 2nd ed. — Moscow: Higher School, 1977. — 332 p.
3. **Genette G.** Narrative Discourse: An Essay in Method / transl. by J. E. Lewin. — Ithaca: Cornell University Press, 1980. — 285 p. (narrativestudies.lib.unb.ca)
4. **Kristeva J.** Word, Dialogue and Novel // Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. — New York: Columbia University Press, 1980. — P. 64–91.
5. **Lawrence D. H.** Women in Love. — London: Martin Secker, 1921. — 508 p.
6. **Leech G., Short M.** Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. — 2nd ed. — Harlow: Pearson Longman, 2007. — 404 p.

7. **Shakespeare W.** The Complete Works / ed. by S. Wells, G. Taylor. — 2nd ed. — Oxford: Clarendon Press, 2005. — 1344 p.

8. **Woolf V.** Mrs. Dalloway. — New York: Harcourt, Brace and Company, 1925. — 296 p.